



ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA SARKAZM

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

E-mail: pardaboyevaadiba@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada hozirgi o'zbek she'riyatida sarkazm va uni vujudga keltirgan omillar o'rganiladi. Xususan, Abdulla Oripov ijodida tasvir va ifoda uyg'unligi, muloqot shakllaridan foydalanishda shoir mahorati, hayotiy va badiiy haqiqat muammosi kabi maslalar ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sarkazm, muloqot, tasvir, ifoda, badiiy mahorat, obraz, shakl va mazmun.

Аннотация. В статье рассматривается сарказм в современной узбекской поэзии и факторы, его создавшие. В частности, в творчестве Абдуллы Орипова научно анализируются такие вопросы, как гармония образа и выражения, мастерство поэта в использовании форм общения, проблема реальной жизни и искусства.

Ключевые слова: сарказм, коммуникация, образ, экспрессия, художественность, образ, форма и содержание.

Annotation. The article examines sarcasm in modern Uzbek poetry and the factors that created it. In particular, in the works of Abdulla Oripov, such issues as the harmony of image and expression, the poet's skill in using forms of communication, the problem of real life and art are scientifically analyzed.

Key words: sarcasm, communication, image, expression, artistry, image, form and content.

KIRISH

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov o'zbek she'riyatiga o'tgan asrning 60-yillarida kirib keldi. U dastlabki she'rlaridan boshlab milliy she'riyatda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo'lida ijod qildi. Hayotda vujudga kela boshlagan yangicha qarashlar, inson ruhiy olamidagi evrilishlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo'lgan ehtiyoj shoir she'rlarining g'oyaviy mundarijasini belgilab berdi. Abdulla Oripov erishgan ijodiy yutuqlarni milliy va jahon adabiyoti an'analaridan ajralgan tarzda tasavvur etish mumkin emas. Bu muhim muammoni yoritishda ham o'zbek adabiyotshunosligida muayyan ishlar oshirilgan [10.42].

Abdulla Oripov erishgan ijodiy yutuqlarni milliy va jahon adabiyoti an'analaridan ajralgan tarzda tasavvur etish mumkin emas. Bu muhim muammoni yoritishda ham o'zbek adabiyotshunosligida muayyan ishlar oshirilgan. Zero, "Har qanday yozuvchi yoki shoirning ijodiy kamolotga erishuvi, eng avvalo, uning milliy g'oya va qadriyatlariga qanchalik sadoqati hamda ularni o'z ijodida poetik jihatdan nechog'li yuksak darajada ifodalab bera olish imkoniyati va mahoratiga bog'liq. Shu bois, talantli ijodkorlar adabiyotdagi dastlabki qadamlaridanoq milliy ruh va tafakkurning mohir ifodachisi sifatida ko'pchilikning e'tiborini jalb qilishadi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri, Navoiy mukofoti sovrindori Abdulla



Oripovning el qalbiga yo‘l topib, uning mehru muhabbatiga sazovor bo‘lganligining bosh sabablaridan biri ham ana shunda deb o‘ylaymiz. Abdulla Oripov she‘riyati o‘zbek adabiyoti uchun o‘ziga xos takrorlanmas bir hodisadir” [6.4].

Darhaqiqat, A.Oripov o‘z ijodida xalq dardini gavdalantira bilgan chinakam ijodkor bo‘ldi. Shoir she‘riyati mavzuviy jihatdan nihoyat rang-barangki, ularning barchasida ijodkor mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, Vatan mavzusidagi she‘rlarida unga sodiq bo‘lish, xalq tarixining achchiq asoratlari, sobiq tuzumning asl mohiyati kitobxonga aniq badiiy talqin etildi.

ASOSIY QISM

Adabiyotshunosligimizda shoir she‘riyatida qalamga olingan mavzular hamda ularda qo‘llanilgan she‘riy san‘atlar, badiiy tasvir vositalari turli aspektlarda tadqiq qilindi. Xususan, shoir ijodida ramziy-majoziy tasvir, xalq og‘zaki ijodi an‘analari, vazn o‘lchovlari va hakoza qirralari yuzasidan ilmiy xulosalarga kelindi. Shoir she‘riyatida ahamiyat qaratish lozim bo‘lgan yana bir jihat borki, u ijodkor asarlaridagi nozik sarkazmdir. Zero, shoir ijodi bu jihatdan maxsus tadqiq etilmagan. Vag‘olanki, ayni shu jihat A.Oripov she‘riyatida o‘zining bektkor ifodalarini topgan. Adabiyotshunoslik terminlari yuzasidan mavjud lug‘atlarda e‘tirof etiladiki, “Sarkazm (yun. sarkaso - etini yulmoq) komiklikning turi, tasvirlanayotgan narsaga karatilgan zararli kulgi. Antik davrlardan keluvchi an‘anaga ko‘ra, sarkazmga kinoyaning bir turi, uning keskin va yuqori darajada namoyon bo‘lishi sifatida karaladi. Sarkazm bilan kinoya orasida o‘xshashlik kattaligiga qaramay, ularni jiddiy farqlovchi jihatlar ham bor. Jumladan, kinoyada hamisha ko‘chma ma‘nolilik xususiyati saqlanadi va obyekt bilan ifoda aloqasi pardalanadi, Sarkazmda esa ko‘chma ma‘nolilik, pardalanganlik xususiyati yemiriladi – nazarda tutilgan obyekt bilan ifodaning aloqasi ancha ochiq bo‘ladi” [9.271]. Demak, sarkazm – o‘ta ixchamlik asosida turli xil qiyofalarda namoyon bo‘luvchi obyektga nisbatan yo‘naltirilgan tasvir deyish mumkin. Qolaversa, sarkamz ijodkor “nishonga olgan” obyektini o‘ta yashirin, shuningdek, uning xatti-harakatlari mohimiyatiga mos shakldadagi tasvirini topish bilan o‘lchanadi. Xususan, A.Oripovning quyidagi she‘ri bunga yorqin misol bo‘la oladi:

Deydilar, it hurar
O‘tadi karvon,
Ranju balolardan
Yonmasin joning,
Lekin alam qilar
Bir umr giryon,
Itlar orasidan



O'tsa karvoning [1. 157].

Adabiyotshunoslikda sarkazmga kinoya sifatida qaraladi. Lekin kinoya sarkazm unsurlaridan biri sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq. Ahamiyat berilsa, yuqoridagi she'rda xalq maqollaridan foydalanish orqali shoir nazarda tutgan obyekt (kim yoki kimlardir) mohirona pardalangan holda ifoda etilgan. Ta'kidlash kerakki, bunday hayotiy hodisani hayotni idrok etgan har bir kishi anglashi mumkin.

Zamonaviy she'riyatda dialog va uning badiiy funksiyasini maxsus tadqiq qilgan S.Matyakupov izlanishlarida A.Oripovning dialogik shakldagi she'rlarida sarkazm mohiyatiga ham e'tibor qaratiladi.

Dedilar: – Ayo, pir, aylagil shafqat,

Haqiqat bormikan, rostin ayt faqat.

Pir dedi: – Tiriksan, haqiqat shuldir,

Bir kuni o'lgaysan, bul ham haqiqat [3.105].

“Muloqot shaklida asriy haqiqat mantiqiy ta'kidi takrorlanadi. Zalvorli savolga hayotiy ziddiyat yechim topadi: “Tiriksan, haqiqat shuldir, Bir kuni o'lgaysan, bul ham haqiqat”. Shoir mavjudlik jumbog'iga javob axtaradi, tiriklik va o'lim haqiqatning ikki qirrasini... So'zning muallif va lirik qahramon aloqasini tayin etishi natijasida tasavvur, talqin va tahlil yaxlitlashadi. Tasdiq – inkor aynan munosabat asosini ta'minlaydi, badiiy kommunikasiya esa tasvir yorqinligi va ifoda betakrorligini belgilaydi. Eng ahamiyatlisi shuki, shoish mazkur dialogda “Bir kuni o'lgaysan, bul ham haqiqat” – deya, shafqatsiz sarkazm yaratadi” [7. 102].

Xuddi shu kabi sarkazm alomatlari A.Oripovning “Tulki falsafasi” she'rida ham seziladi.

– Ustoz, – dedi bir kun tulki tulkiga,

Nechun biz nishonmiz doim kulgiga?

O'rmonda bo'ri ham, hatto janob sher,

Bir-birin turtishib: Tulkisan-a, der [3. 239].

Tulki hamisha ayyorlik va mug'ombirlik sifatleri bilan hikoya, ertaklarda ko'rsatib kelingan. Masalan, “Bo'g'irsoq” ertagida ham barcha hayvonlar bo'g'irsoqni yemaganligi, ammo tulki qulog'i eshitmasligini bahona qilib, uni yeb qo'yganligi ham tulkining qanchalik o'z foydasi uchun hatto yolg'on aralash ayyorlik ishlatganligini ko'rishimiz mumkin. Bu baytda nafaqat hayvonlarning, balki, insonlar orasida ham o'z foydasi uchun, o'z ishini hal qilishda qing'ir va ayyor yo'llardan yuradigan insonlarga nisbatan qo'llanadi.

Boshqalar ustidan kulmaslar nechun,

Bu hol qorong'udir biz yoshlar uchun?

“Uka” dedi shunda tulkiga tulki,



Bunday hodisotning sababi shulki,
Kasbini eplolmay qolsa aksari,
Tulkilik qiladi hayvonlar bari.
Ko'pincha ilojsiz qolgan fursatda,
Tulkilik qiladi sher ham albatta.
Lekin bizning ishni eplolmas ular,
Shu sabab o'rmonda masxara bo'lar.
Sen-chi bunday holdan aslo o'kinma,
Boshqalar singari chetga bekinma.
Tulkisan, bunday chog' tulkilik qilgin,
"Tulki" deb kulsalar, qo'shilib kulgin [3. 239].

Umumta'lim darsliklaridan bizga ma'lumki, bizga tulki hamisha ayyorlik, mug'ombirlik ramzi bo'lib kelgan. Negaki, tulkidagi ayyorlik xislatlari insonlarga nisbatan ishlatilganda, "ishi bitguncha hop deb turadigan", "vaziyatdan yengil chiqib keta oladigan", "gapga usta va gapni aylantira biladigan" insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ko'pincha ilojsiz qolgan fursatlarda ayrim insonlar ayyorlik yo'liga o'tib, o'z ishlarini hal qilib olishadi. Ammo ayyorlik qilish ham hammaning qo'lidan kelmaydi. Ushbu she'rda ham o'z foydasini ko'zlab mug'ombirlik yo'lini tanlaydigan insonlar qiyofasi ko'rsatilgan.

Abdulla Oripovning quyidagi she'r misralariga e'tibor beradigan bo'lsak, insonlar qiyofasining vaziyat va holatga qarab o'zgarishini ko'ramiz. Bir so'z bilan aytganda bor bo'lsa ko'ra olmaydi, yo'q bo'lsa gapirishadi. Oddiy bir qishloqda yashaydigan yigit o'qish va ishlash, olim bo'lish ilinjida shaharga ketadi. Odamlar esa tez orada butun bir qishloqqa yigitni daydi bo'ldi, tagi pastda kim bo'lardi degan mish-mishlar chiqarishadi. Yillar o'tib esa, umid bilan suqilgan tayoqning barg yozganini ko'rishadi.

Hoy, birodar, eshitdingmi, a,
Olim bo'lmish o'sha falonchi.
Yoshlikda ham oqil edi, ha,
Tortgan edi bizga, ha, bizga... [4].

Ya'ni, yigit olim bo'lib qaytganligini, cho'llariga suv chiqarish ilinjida kelganini eshitishadi. Avvallari tagi past deb yomonlagan odamlar, olim bo'lib qaytgan yigitni "bizga tortganda" deya zaxarxanda kesatiqlar bilan olqishlashi insonlarning o'z foydalari yo'lida ikkiyuzlamachilikkacha borishlarini ko'rsatib bergan.

Uchqur xayol sohibi yigit
Yashar edi xilvat qishloqsa.
Uni bir kun yetaklab umid:



“Xayr, — dedi ona dargohga.
-Olim bo‘lib qaytay, qishlog‘im...
Kechir, qolib ketsam agarda”.
Uni yosh va bo‘ronli qalbi
Olib ketdi olis shaharga.
Odamlar-chi, ba‘zi odamlar
Qishloq aro tarqatdilar gap:
“Hoy, falonchi, eshitdingmi, a,
Huv falonchi daydi bo‘lmish zab,
Tagi past-da, qurt bor boshida,
Tortdi falon qarindoshiga...”
Yillar o‘tdi.. Barg yozdi axir,
Umid bilan suqilgan yaproq... [4].

She‘rning ushbu jumllariga e‘tibor bering: “Umid bilan suqilgan tayoq, barg yozdi” demoqda. Har bir inson, Har bir yosh o‘z oldiga maqsad qo‘ysa, u xattoki qishloqdan chiqqan bo‘lsa ham, o‘z maqsadlariga albatta erishadi. Muhimi hech qachon harakatdan to‘xtamaslikdir. Men bu yosh yigitni Abdulla Oripovga ham o‘xshatdim. Neko‘z qishlog‘idan chiqqan Abdulla keyinchalik bu darajada xalqning ko‘nglidan joy oladigan shoir bo‘lib ketishi balki o‘zining ham hayoliga kelmagandir. Ammo Abdulla Oripov chinakam xalq dardini o‘z dardidek sevgan shoirdir.

XULOSA

Abdulla Oripov she‘riyatini o‘rganish juda ham keng qamrovlidir. Har bir she‘rida o‘zgacha kechinma va voqealar bilan yondashilgan. Kitobxon uchun har bir she‘rini tushunish va tahlil qilish juda ham oson usulda berilgan. Ushbu maqolada Oripov she‘riyatida uchrab turuvchi sarkazmga xos bo‘lgan she‘rlarning tahlili o‘rganildi. Abdulla oripov har bir she‘rining yaralishi zamirida hayotdagi ma‘lum bir voqea, hodisa bilan bog‘liqligi, har birining turkisi borligini ham aytib o‘tib ketgan. Demak, har bir she‘r tahlil qilish uchun yangi bir mavzu, yangi bir voqealardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарк, 2019.
2. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
3. Абдулла Орипов. Адолат кўзгуси. – Тошкент: Адолат, 2005.
4. Адабий тур ва жанрлар (тарихи ва назариясига оид). 2-жилд. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992.



5. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O 'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.
6. Ашурова Г. Абдулла Орипов шеърятда анъана ва бадий маҳорат (образ, гоя ва тасвир): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
7. Матякупов С. Абдулла Орипов шеърятда диалог: тасвир ва ифода мутаносиблиги / “Абдулла Орипов ижодий меросининг ўрганилиш масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2021.
8. Норбоев Б. Истиқлол ва истеъдод тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
9. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
10. Нақул И. Ibrat va mahorat maktabi (G'.G'ulom va A.Oripov she'riyati munosabatiga doir) // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1983. 4-son.

